

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**AXMEDOV OTABEK ABDASHIMOVICH**

**MADANIYLASHTIRILGAN DIPLOID G'O'ZA KOLLEKSION  
NAMUNALARINING SELEKSIYADA FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

**06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik**

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по сельскохозяйственным наукам**

**Sontent of the abstract of (PhD) doctoral dissertation on  
agricultural sciences**

**Axmedov Otabek Abdashimovich**

Madaniylashtirilgan diploid g‘o‘za kolleksion namunalarining seleksiyada foydalanish imkoniyatlari..... 3

**Ахмедов Отабек Абдашимович**

Возможности использования коллекционных образцов культивируемого диплоидного хлопчатника в селекции..... 21

**Akhmedov Otabek Abdashimovich**

Possibilities of using collection samples of cultivated diploid cotton in breeding..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 43

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

**DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**Axmedov Otabek Abdashimovich**

**MADANIYLASHTIRILGAN DIPLOID G'O'ZA KOLLEKSION  
NAMUNALARINING SELEKSIYADA FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

**06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik**

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Qx957 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tdau.uz](http://www.tdau.uz)) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mamaraximov Bunyod Ikramovich**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Rasmiy oponentlar:**

**Amanova Maxfurat Eshmuradovna**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Mo'minov Hasan Aliqulovich**  
biologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental  
biologiyasi instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli Ilmiy kengashning «30» 10 2025-yil soat 15<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi 2-uy, Tel.: (+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; E-mail: [tuag\\_info@edu.uz](mailto:tuag_info@edu.uz). Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 55511B - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi 2-uy, Toshkent davlat agrar universiteti Axborot-resurs markazi binosi. Tel.: (+99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «15» 10 da tarqatildi.  
(2025 yil «15» 10 dagi 20-raqamli restr bayonnomasi)



**U.Norqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, q.x.f.d., professor.

**A.A.Qurbonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d.,  
dotsent

**M.S.Raxmankulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, q.x.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyo miqyosida yiliga ishlab chiqariladigan 23-25 mln tonna paxta tolasining “deyarli 80 foizi kiyim-kechak uchun, 15 foizi uy-ro‘zg‘or buyumlari uchun, qolgan 5 foizi esa texnik ehtiyojlar – noto‘qima matolar, to‘ldirgichlar ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, atrof-muhitni asrab-avaylashga bo‘lgan intilish tufayli dunyo aholisining tabiiy tolalarga bo‘lgan talabi sezilarli darajada oshdi”<sup>1</sup>. Xalqaro paxta bo‘yicha maslahat qo‘mitasi (ICAC) ma‘lumotlariga ko‘ra, “dunyo bo‘yicha so‘nggi o‘n yillikda paxta tolasini yetishtirish hajmi 4,0 % ga oshgan bo‘lishiga qaramasdan, tola hosildorligi 1,0 % ga kamaygan. Dunyo bo‘yicha Xitoy, Avstraliya, Braziliya, Isroil, Turkiya, Meksika davlatlari yuqori tola hosildorligiga (21,3-16,1%) ega bo‘lgan g‘o‘za navlarini etishtirsa, O‘zbekistonda esa paxtachilik rivojlangan davlatlarga nisbatan bu ko‘rsatkich past bo‘lib, 655 kg/ga tola hosildorligiga ega”<sup>2</sup>. Paxta tolasini ishlab chiqarishning sun‘iy tolalarga nisbatan raqobatbardoshligini oshirishda resurslar sarfini kamaytirgan holda hosildorlikni oshirish, noqulay iqlim sharoitlariga mos navlarni joriy qilish, tabiiy tolaning boshqa manbalarini izlab topish dolzarb hisoblanadi.

Dunyoda turli tola beruvchi ekin turlaridan foydalaniladi va ularning ichida insoniyat uchun eng qulay bo‘lgani paxta tolasidir. O‘rta va ingichka tolali g‘o‘za turlariga mansub navlar paxta tolasining asosiy manbai hisoblansa-da, Xitoy, Hindiston va Pokistonda madaniylashgan diploid *G. herbaceum* L. va *G. arboreum* L. turlariga mansub navlar ham tolasini uchun ekib, yetishtiriladi. Bu navlar tezpisharlik, hosildorlik hamda zararkunanda hasharotlarga, tashqi muhitning stress omillari - yuqori harorat, qurg‘oqchilik, sho‘rga bardoshlilik bilan ajralib turadi. Shu boisdan, mazkur g‘o‘za turlari seleksiyasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar olib borilib, g‘o‘za ekin maydonlarini kengaytirmasdan hosildorlikni saqlab qolish vazifasi dolzarbligicha qolmoqda. Respublikamizda yetishtirilayotgan paxta xomashyosi mavjud qayta ishlash korxonalarining to‘liq quvvatda ishlashi uchun yetarli emas. Shuningdek, qurg‘oqchilikka, sho‘rga, turli kasallik va zararkunandalarga bardoshi navlarni yaratish zarurati bu xususiyatlar donori bo‘lgan g‘o‘za xilma-xilliklariga yuzlanishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli<sup>3</sup>, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonlari<sup>4</sup> hamda 2023-yil 15-dekabrda “Paxtachilikda urug‘chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo‘shimcha

<sup>1</sup><https://openknowledge.fao.org>

<sup>2</sup> <https://www.indexmundi.com/agriculture/>

<sup>3</sup><https://lex.uz/docs/4567337>

<sup>4</sup><https://lex.uz/docs/5841063>

chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-391-sonli<sup>5</sup> qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** A<sub>1</sub> va A<sub>2</sub> genom guruhiga mansub madaniylashgan diploid g'o'za turlarini o'rganish va ulardagi qimmatli belgi va xususiyatlardan foydalanish imkoniyatlarini ochib berish bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, dunyo olimlaridan C.Yang & all, L.Zhang & all, D.D.Fang & all, I.A.Khan & all turlararo duragaylash, eksperimental poliploidiya, molekulyar uslublar yordamida kasalliklar (gommoz, fuzarioz, vilt), zararkunanda hasharotlarga bardoshli donorlar olishga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borishgan. Singh et all, Pathak, Patel tomonidan Hindistonda *G.arboreum* L. va *G.herbaceum* L. turichi duragaylari asosida Miziyo, Mungariya, Kurangani va Pundra navlari yetishtirilishi hamda diploid g'o'za yetishtirishda asosan geterozisli duragaylardan foydalanilishi bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamizda o'tgan asrning 70-yillarida A.D.Dadaboyev tomonidan *G.arboreum* L. turiga mansub jun tolali S-7008, S-7073, S-7075 navlari yaratilgan. B.A.Sirojiddinov tomonidan bu turlarning filogenetik munosabatlarini aniqlash va amaliy seleksiya uchun yangi donorlar olish bo'yicha, X.A.Mo'minov tomonidan duragaylash orqali foydali xo'jalik belgilarini o'zida mujassamlashtirgan va bu belgilarni madaniy navlarga o'tkazishda boshlang'ich manba sifatida genetika va seleksiya izlanishlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan duragaylar olish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. M.B.Axmedov g'o'zaning madaniylashgan diploid va poliploid turlarining kariotipini o'rganib, poliploid turlarning kelib chiqishida A-genomli *G.herbaceum* L., *G.arboreum* L. turlarining ham o'rni borligini aniqlagan.

Madaniylashgan diploid g'o'zaning boshqa kam o'rganilgan turlarida mavjud bo'lgan tolaning qimmatli xususiyatlaridan foydalanish, ularni ichidan qimmatli namunalarni, seleksion ashyolarni ajratish va analitik seleksiya usulida manbalar tayyorlash, respublikamizning noqulay tuproq-iqlimga ega hududlarida yetishtirish uchun kolleksiya namunalari orasidan boshlang'ich ashyo sifatida foydalanish mumkin bo'lgan manbalar ajratish bo'yicha tadqiqotlar dolzarbdir.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasaning rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi kafedrasining ko'p yillik ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga bog'liq holda, shuningdek QXA-9-035 "G'o'zaning dunyoviy kolleksiyasini o'rganish, saqlash, boyitish va qayta tiklash, namunalarning asl nusxasini saqlab qolish usullarini takomillashtirish hamda qimmatli belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan namunalarni aniqlab amaliy seleksiyaga tavsiya qilish" (2009-2011 yy.), KXA-8-040 «G'o'zaning dunyoviy kolleksiyasini saqlash, boyitish, yangi namunalarning karantin nazoratini o'tkazish, namunalar unuvchanligini tiklash hamda o'rganish asosida qimmatli belgi va

---

<sup>5</sup><https://lex.uz/uz/docs/6694158>

xususiyatlarga ega bo'lgan namunalarni aniqlab amaliy seleksiyaga tavsiya qilish» (2012-2014 yy.), QX-A-8-064 “G'o'za genofondini saqlash, tiklash, shuningdek tola sifati xalqaro talablarga javob beradigan, kasallik va zararkunandalarga bardoshli, yuqori hosilli, ertapishar namunalarni aniqlash va seleksion-genetik izlanishlarga tavsiya qilish” (2015-2017-yy.), QX-A-QX-2018-176 “G'o'zaning jahon kolleksiyasi namunalarini saqlash, yangilash, istiqbolli yangi manbalar bilan to'ldirish, qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha ma'lumotlar to'plamini yaratish” (2018-2020-yy.) mavzusidagi amaliy loyihalari doirasida bajarilgan va davom ettirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** G'o'zaning madaniylashgan diploid *G.arboreum* L. va *G.herbaceum* L. turlariga mansub nav namunalarini o'rganish, qimmatli-xo'jalik belgilari bo'yicha seleksion baholash hamda navlar populyatsiyasidagi ajralib chiqqan o'simliklarda analitik seleksiya usulini qo'llash orqali o'rta tolali g'o'za navlari genotipini boyitish uchun boshlang'ich ashyo yaratishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

madaniylashtirilgan *G.arboreum* L. va *G.herbaceum* L. diploid turlariga mansub kolleksiya nav namunalarini morfologik va asosiy xo'jalik belgi va xususiyatlari bo'yicha baholash va yuqori ko'rsatkichli namunalar guruhini tanlash;

tanlab olingan namunalarning turli o'suv davrlarida so'ruvchi zararkunandalar bilan zararlanishini baholash;

tanlab olingan nav namunalar populyatsiyasidagi tezpisharligi, mahsuldorligi, tola chiqimi va uzunligi bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib alohida ajralib chiqqan o'simliklar asosida analitik seleksiya uslubida oila va tizmalar yaratish va ularning sinovini tashkil qilish;

o'rta tolali g'o'za navlari genotipini boyitish uchun boshlang'ich ashyo sifatida foydalanishga mos, viltga hamda so'ruvchi zararkunandalarga bardoshli diploid namunalar, oilalar va tizmalarni amaliy seleksiyada qo'llash imkoniyatlarini baholash va tavsiya qilish;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida g'o'zaning jahon kolleksiyasidan olingan madaniylashgan diploid *G.arboreum* L. va *G.herbaceum* L. turlariga mansub 500 ta nav namunasidan, ular ichidan analitik seleksiya uslubida tanlab olingan o'simliklar, ularning oilalari va tizmalaridan, taqqoslash uchun andoza sifatida esa A.Dadaboev seleksiyasiga mansub *G.arboreum* L. turiga mansub S-7094 navidan, *G.hirsutum* L. turiga mansub tola sifati yuqori va IV tip bo'lgan S-01 navidan, namunalarning viltga bardoshlilikini aniqlashda indikator sifatida S-6524 navidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib g'o'za kolleksiyasidagi A<sub>1</sub>, A<sub>2</sub> genomli turlarga mansub diploid g'o'za namunalarining morfobiologik xususiyatlari, qimmatli belgilarining namoyon bo'lishi, tanlovlar natijasida barqarorlashishi, tolasining yuqori nam yutish qobiliyatiga ega ekanligi asosida ulardan turli maqsadlarda foydalanishning asoslanishi hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarda fenologik kuzatuv, yakka va ommaviy tanlash, analitik seleksiya usullaridan keng foydalanilgan, kolleksiya namunalarini o'rganish, ularda fenologik kuzatuvlar olib borish va seleksion baholash sobiq Butunittifoq O'simlikshunoslik instituti uslubiy ko'rsatmasiga (Davidyan va boshq., 1978) muvofiq, tajribalar “Dala tajribalarini o'tkazish uslublari” (2017) uslubiy qo'llanmasi asosida, olingan raqamli ma'lumotlarning statistik tahlili «Методы

проведения полевых экспериментов» (Dospexov, 1985) qo'llanmasi asosida amalga oshirilgan. Namunalarning so'ruvchi zararkunandalar bilan zararlanishi bir qatordagi o'simliklarda hasharotlarning uchrash miqdoriga asoslangan umumiy qabul qilingan tartibda, vertitsil zamburug'iga bardoshlilik Popov Minko, Popov (1974) usulida, tola sifati Respublika "Sifat" markazida, tolaning gigroskopikligi O'zbekiston-Turkiya qo'shma "Barakat Alfa" korxonasida GOST R 57876-2017 talabi bo'yicha aniqlangan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor madaniylashgan *G.arboreum* L. va *G.herbaceum* L. diploid turlariga mansub kolleksiya nav namunalari morfologik va asosiy xo'jalik belgi va xususiyatlari bo'yicha o'rganilgan, baholangan va analitik seleksiya usulida amaliy seleksiya uchun tolaning noyob xususiyatlariga, yuqori tola chiqimi va uzunligiga ega bo'lgan namunalarni ajratish imkoniyati asoslangan;

tanlab olingan nav namunalari populyatsiyasidagi tezpisharligi, mahsuldorligi, tola chiqimi va uzunligi, viltga, so'ruvchi zararkunandalarga bardoshlilik bo'yicha alohida ajralib chiqqan o'simliklar asosida analitik seleksiya uslubida oila va tizmalar shakllantirilgan va ulardan o'rta tolali g'o'za navlari genotipini boyitish uchun qimmatli manba sifatida foydalanish imkoniyatlari ilmiy asoslangan;

*G.arboreum* L. va *G.herbaceum* L. namunalari analitik seleksiya uslubida tanlovlar olib borilganda tezpisharlikning 108,0-119,0 kun oralig'ida barqaror saqlanishi, shuningdek shonalashgacha bo'lgan davrning nisbatan qisqaligi namunalarning unib chiqqandan gullashgacha va ochilishgacha bo'lgan davrlariga ta'sir ko'rsatmasligi aniqlangan;

madaniylashgan diploid namunalarda hosildorlikni belgilovchi bir o'simlik mahsuldorligi 37,0-70,4 g/o'simlikni tashkil etgan holda, belgining o'zgaruvchanligi asosan bir tupdagi ko'saklar soniga bog'liqligi qayd qilingan va ajratib olingan namunalarning belgi bo'yicha barqaror populyatsiyada tarkib topganligi asoslangan;

analitik seleksiya yo'li bilan *G.arboreum* L. turiga mansub diploid T-1980, T-0306 tizmalari yaratilgan va ularning qimmatli xo'jalik belgilarning ijobiy majmuiga va vertitsillyoz vilt kasalligiga bardoshli ekanligi, tezpisharligi, tola chiqimi va gigroskopikligi yuqori bo'lishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqotlar natijasida hosildor, bitta ko'sakdagi paxta vazni, tola uzunligi va tola chiqimining yuqori ko'rsatkichlarini o'zida mujassamlashtirgan, noyob belgi xususiyatlarga ega shakllar ajratib olingan va ularni boshlang'ich manba sifatida amaliy seleksiya jarayonida foydalanish tavsiya etilib, g'o'zaning dunyoviy genofondini tezpishar, qimmatli xo'jalik belgilari yuqori va sifat belgilari jahon andozasiga mos bo'lgan namunalari bilan yanada boyitish imkonini bergan;

kolleksiya namunalari ichidan ajratib olingan namunalarda unib chiqqandan birinchi ko'sakning ochilishigacha bo'lgan davr *G. arboreum* L. turi namunalari 108-118 kunni, *G.herbaceum* L. namunalari esa 108-119 kunni tashkil qilib, ikkala tur namunalari ham shonalashgacha bo'lgan davrning nisbatan qisqaligi ulardan tezpisharlik bo'yicha amaliy seleksiyada foydalanish imkoniyati mavjudligi aniqlangan;

nav namunalari populyatsiyasidagi tezpisharligi, mahsuldorligi, tola chiqimi va uzunligi, so'ruvchi zararkunandalarga bardoshlilik bo'yicha alohida ajralib chiqqan o'simliklar asosida analitik seleksiya usulida oila va tizmalar, shu jumladan, *G.arboreum* L. turiga mansub, vertitsillyoz vilti va so'ruvchi zararkunandalarga bardoshli, tezpisharligi 110-115 kun va tola chiqimi 35,0 % bo'lgan diploid T-1980, T-0306 tizmalari yaratilgan va ularning raqobat nav sinovi tashkil etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Dala tajribalari va laboratoriya tahlillarini olib borishda zamonaviy va statistik usullar hamda nazariy va amaliy ma'lumotlarga yondashuvlar, ko'p yillik tadqiqotlarning uslubiy jihatdan to'g'ri qo'yilganligi, olingan nazariy va amaliy natijalarning dunyo hamda mamlakatimiz olimlari tadqiqot ishlari bilan taqqoslanganligi, tadqiqotlarning amaliy loyihalar doirasida olib borilganligi, birlamchi hujjatlarining mavjudligi, amaliy natijalarning nazariy xulosalar bilan mos kelishi, matematik-statistik tahlillarning amalga oshirilganligi, tadqiqot natijalari respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi hamda natijalarni amaliyotda sinovdan o'tkazilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati g'o'zaning A<sub>1</sub> (*G.herbaceum* L.) va A<sub>2</sub> (*G.arboreum* L.) genomli turichi namoyondalari nav namunalari kolleksiyasini o'rganilganligi hamda asosiy qimmatli xo'jalik belgilarining shakllanishi, tezpisharlik bilan hosildorlik, tola sifati kabi belgilar o'rtasidagi salbiy bog'liqliklarni bartaraf etish orqali *G.herbaceum* L. va *G.arboreum* L. turlariga mansub qimmatli belgilar majmuasiga ega seleksion ashyolar yaratish imkoniyatlarini ochib berilganligi, ulardan tezpisharligi, mahsuldorligi, ko'sak yirikligi, vilt kasalligiga bardoshlilik, tola sifati va boshqa belgilari bo'yicha donor sifatida foydalanish imkoniyatlari asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati – madaniylashtirilgan diploid turlar namunalari ichidan qimmatli xo'jalik belgilarning yuqori majmuiga ega, vertitsillyoz viltga va so'ruvchi zararkunandalarga bardoshli, hosildor, tezpishar va tola chiqimi yuqori bo'lgan namunalarni ajratilganligi, oilalar va analitik seleksiya usulida T-1980, T-0306 tizmalari yaratilganligi, bu tizmalar tolasining gigroskopikligi yuqoriligi va suv tanqisligiga bardoshlilik aniqlanganligi, natijada ularni seleksiya izlanishlarida dastlabki manba sifatida foydalanish uchun tavsiya etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Madaniylashtirilgan diploid g'o'za kolleksion namunalari seleksiyada foydalanish imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

qimmatli xo'jalik belgilarning yuqori majmuasiga ega, vertitsillyoz vilt kasalligiga bardoshli, yuqori hosildor, tezpishar, tola chiqimi, tolasining gigroskopikligi yuqori bo'lgan diploid T-1980, T-0306 tizmalari yaratilib, g'o'za genofondi kolleksiyasiga taqdim etilgan va amaliy seleksiyada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 18-noyabrda 05/04-04-622-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, T-1980 tizmasining tezpisharligi 112-115 kun, hosildorligi 37,0-38,0 s/ga, bitta ko'sak og'irligi 3,7-3,9 g, tola chiqimi 38,0-39,%,

mikroneyr ko'rsatkichi 4,9 ga, T-0306 tizmasining tezpisharligi 108-112 kun, hosildorligi 36,0 s/ga, bitta ko'sak og'irligi 3,7-3,8 g, tola chiqimi 37,0-38,0%, mikroneyr ko'rsatkichi 4,9 ga teng bo'lgan;

yangi yaratilgan oila va tizmalar Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining Navoiy ilmiy tajriba stansiyasida 0,4 ga maydonda sinov maqsadida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 18-noyabrdagi 05/04-04-622-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tizmalarning tezpisharligi o'rtacha 110-115 kun, bitta ko'sakdagi paxta vazni 3,9 g, tola chiqimi 33,8-35,9 foizligi aniqlanib o'rta tolali navlarga yaqin ko'rsatkichlarda hosildorlik (38,0-39,5 s/ga) namoyon qilishiga erishilgan;

g'o'zaning diploid turariga mansub hosildor, bitta ko'sakdagi paxta vazni, tola uzunligi va tola chiqimining yuqori ko'rsatkichlarini o'zida mujassamlashtirgan, noyob belgi xususiyatlarga ega diploid tizmalari Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining Sirdaryo ilmiy tajriba stansiyasining o'rtacha sho'rlangan tuproqlari sharoitida 0,4 ga maydonda joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 18-noyabrdagi 05/04-04-622-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mahalliy sharoitda tizmalarning tezpisharligi o'rtacha 108-112 kun, bitta ko'sakdagi paxta vazni 3,5-3,7 g, tola chiqimi 34,5-36,5 foiz, hosildorligi 36,0-36,5 s/ga ni tashkil qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dala va laboratoriya tajribalari tajribalari har yili maxsus aprobatsiya komissiyalari tomonidan ko'rikdan o'tkazilib, ijobiy baholangan. Ilmiy hisobotlar har yili universitetning ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokamadan o'tkazilgan, tadqiqot natijalari bo'yicha 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**G‘o‘zaning madaniylashtirilgan diploid turlarining evolyusiyasi, sistematik o‘rni va ularning amaliy seleksiyadagi ahamiyati borasidagi adabiyotlar tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida *Gossypium* L. turkumi turlari vakillaridan foydalanilishi bo‘yicha respublikamiz va xorijda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning sharhi, jumladan, madaniy diploid (*G. herbaceum* L. *G. arboreum* L.) g‘o‘za turlarining genetik-seleksion tadqiqotlarda foydalanilishi tarixi, qo‘llanilishi, turlararo duragaylarda morfoxo‘jalik belgilarning bog‘liqligi, g‘o‘zaning qimmatli xo‘jalik va miqdoriy belgilarini o‘rganish tahlili yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar bo‘yicha olingan ilmiy va amaliy natijalar tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot o‘tkazilgan joy, uning sharoiti, tadqiqot manbai va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o‘tkazilgan joy va uning sharoiti, tadqiqot manbai keltirilgan bo‘lib, unda turichi va turlararo duragaylash, resiprok duragaylash, yakka tanlash, fenologik kuzatuvlar, olingan ma‘lumotlarni statistika tahlillari to‘g‘risida ma‘lumotlar bayon etilgan. Tadqiqot o‘tkazilgan joy tuproq-iqlim sharoitining o‘ziga xos xususiyatlari bayon qilingan.

Dissertatsiyaning «**G‘o‘za kolleksiyasidagi A<sub>1</sub>, A<sub>2</sub> genomli (*G. herbaceum* L., *G. arboreum* L.) turlariga mansub namunalarning morfobiologik va asosiy xo‘jalik belgilari**» deb nomlangan uchinchi bobida A<sub>1</sub>, A<sub>2</sub> genomli turlarga mansub namunalarning ayrim morfoxo‘jalik belgilar, ularning tezpisharligi, mahsuldorligi, tola chiqimi va uzunligi, madaniylashtirilgan diploid tur namunalarning turli o‘suv davrlarida zararkunandalar bilan zararlanishi tahlili, sho‘rlangan tuproqlar sharoitida o‘rganilgan diploid kolleksiya namunalarning ayrim qimmatli-xo‘jalik belgilari ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Bobning birinchi bo‘limida g‘o‘za kolleksiyasida mavjud bo‘lgan A<sub>1</sub>, A<sub>2</sub> genomli turlarga mansub diploid namunalar ichidan alohida belgilari bo‘yicha diqqatga sazovor bo‘lgan namnalarni ajratib olish uchun tezpisharlik, tola chiqimi va uzunligi hamda bitta ko‘sakdagi paxtaning vazni ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil qilingan.

O‘rganilgan namunalarda tezpisharlik 104,0-126,0 kun oralig‘ida bo‘ldi va 104,0-109 kunda birinchi ko‘saklari ochilgan namunalar ajratildi. *G. herbaceum* L. turi namunalaridan Afg‘onistonning 0319, 0349, 0352, Turkmanistonning 01780, 01781, 01788, O‘zbekistonning 0294, 0295, 0406, 0490 namunalari tezpisharlik namoyon qildi. Namunalarda bir o‘simlikdagi ko‘saklarning soni birinchi ko‘sak ochilgandan keyin hisobga olindi va o‘rganilgan namunalar bo‘yicha ko‘rsatkich 1,0-3,2 g.gacha bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkichlar 081 (Tuzemniy khlopchatnik, O‘zbekiston) namunasida 3,0 grammni, 0173 (4 WFBL, Hindiston) namunasida 3,3 grammni, 0362 (Guza, Turkmaniston) namunasida 3,2 grammni, 0450 (Guza, O‘zbekiston) namunasida 3,2 grammni tashkil qildi.

Tajribalarimizda o‘rganilayotgan diploid namunalar asosan tolasini uchun ahamiyatli bo‘lgani bois biz bu belgi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichli namunalarni tanlashga alohida e‘tibor qaratdik. Birinchi yil o‘rganilgan namunalarning tola chiqimi bo‘yicha 23,5-41,4% oraliqdagi natijalar olindi. Bu namunalar ichidan mazkur belgilari bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lganlari keyingi tadqiqotlarga jalb qilindi.

Bobning ikkinchi bo‘limida ajratib olingan diploid kolleksiya namunalarning


ayrim morfoxo'jalik belgilari ko'rsatkichlari tavsiflangan. 2016-2019 yillar davomida ajratib olingan namunalar ekib o'rganildi va ularda belgilarning yakka tanlovlr ta'sirida yaxshilanib va barqarorlashib borish imkoniyati tahlil qilindi.

*G.arboreum* L. turiga mansub namunalarning bosh poya balandligi 70,7-143,4 sm, *G.herbaceum* L. turi namunalari 85,7-168,7 sm ni tashkil etdi. Aksariyat namunalar (har ikkala tur bo'yicha) andoza S-01 navidan (95,0 sm) bo'yi baland bo'lganligi kuzatildi. *G.arboreum* L. turiga mansub S-7094 navining bosh poya balandligi 126.0 smga teng bo'lib, belgining o'zgaruvchanligi ancha yuqori holatda, ya'ni 14,0% ga tengligi aniqlandi.

Namunalarning birinchi hosil shoxining joylashuvi bo'yicha ham yuqoridagiga o'xshash holat kuzatildi. *G.arboreum* L. turi namunalarning ayrimlarida birinchi hosil shoxining juda pastki bo'g'inglarda paydo bo'lishi kuzatildi. Bunday holat 0182 raqamli namunada kuzatilib, uning birinchi hosil shohi 2,6-bo'g'inda paydo bo'ldi. 012142-raqamli namunada bu ko'rsatkich 6,4 ni tashkil etdi. *G.herbaceum* L. turi namunalaridan 03492-raqamli namunaning birinchi hosil shohi 2,6-bo'g'inda paydo bo'lgan bo'lsa, 0441-raqamli namunada 6,7-bo'g'inda paydo bo'lganligi qayd etildi. Andoza S-01 navida bu ko'rsatkich 5,3 ni tashkil etdi.

*G.herbaceum* L. turi namunalarda birinchi hosil shohi 3,2-6,7 bo'g'in oraliqlarida joylashib, belgining namunalar bo'yicha o'zgaruvchanlik koeffitsienti 4,4-11,2% ni tashkil qildi. Bu turga mansub namunalarning ko'pchiligida birinchi hosil shohining pastda joylashishi kuzatildi.


S-7094 navi birinchi hosil shoxining joylashgan o'rni bo'yicha 6,3 %, belgining o'zgaruvchanligi bo'yicha 8,3 %, *G.hirsutum* L.turiga mansub S-01 navi esa birinchi hosil shoxining joylashgan o'rni bo'yicha 5,3 %, belgining o'zgaruvchanligi bo'yicha 5,0 % lik natija ko'rsatdi.



**1-rasm. *G.arboreum* L. turi namunalarda o'suv davrlarining o'zgaruvchanligi**

Tezpusharlik o'simlikning unib chiqqandan shonalashgacha, shonalashdan gullashgacha va gullagandan pishib etilganga bo'lgan davrlarning davomiyligi bilan belgilanadi. *G.arboreum L.* turi namunalarida birinchi ko'saklar 82,2 -132,8 kun oralig'ida ochilgan bo'lib, ko'rsatkichning eng past va eng yuqori natijalari mos ravishda 012177 va 012200-raqamli namunalarga to'g'ri keladi. *G.herbaceum L.* turi namunalarida birinchi ko'saklar 92,2-110,3 kun oralig'ida ochilib, belgining namunalar bo'yicha o'zgaruvchanlik koeffitsienti 6,8-14,22% ni tashkil qildi.

Umuman olganda, har ikkala tur namunalarida ham birinchi hosil shoxining joylashuvi tezpusharlik bilan bog'liqligi ko'rinadi. Bu bog'liqlik birinchi ko'saklari eng pastda joylashgan namunalarda birinchi ko'saklarning tez ochilishi bilan asoslanadi (1-, 2-rasmlar).



**2-rasm. *G.herbaceum L.* turi namunalarida o'suv davrlarining o'zgaruvchanligi**

Sanoat navlari asosan bitta ko'sakdagi paxtaning vazniga qarab farq qiladi. *G.hirsutum L.* turiga mansub navlarda bitta ko'sakdagi paxtaning vazni 3 g.dan 8-10 g.gacha bo'ladi. Diploid xromosoma to'plamiga ega bo'lgan namunalarda esa ko'rsatkich 1,0-4,0 g atrofida bo'ladi. Tajribalarimizda *G.arboreum L.* namunalarining bir dona ko'sakdagi paxta vazni 2,0-3,0 g, *G.herbaceum L.* 1,3-3,3 gramm oralig'ida bo'ldi. 1-jadvalda diploid kolleksiya namunalarining mahsuldorligi keltirilgan. Bir o'simlik mahsuldorligi ko'rsatkichi tadqiqotlar sharoitida hosildorlikni aniqlash uchun foydalaniladi. Bir o'simlik mahsuldorligi qanchalik yuqori bo'lsa, bir gektardagi o'simlik sonidan kelib chiqib nazariy kutilgan hosildorlik miqdori ham shunchalik yuqori bo'ladi. Shunday qilib, bitta ko'sakdagi paxta xomashyosi vazni va bir o'simlikdagi etuk ko'saklar sonidan kelib chiqadigan bu ko'rsatkich nazariy bo'lib, biologik mahsuldorlik ko'rsatkichidan farq qiladi.

Tajribalarimizda *G.arboreum* L. namunalarining bir o'simlik mahsuldorligi 39,9-62,1 grammgacha bo'ldi. Eng yuqori mahsuldorlik 002547 namunasida kuzatilib 62,1 grammni tashkil etdi. *G.arboreum* L. turiga mansub 02547 katalog raqamli (62,1 g), 012088 katalog raqamli (56,4 g), *G.herbaceum* L. namunalaridan 081 raqamli (68,2 g), 0319 katalog raqamli (58,1 g) 0349 katalog raqamli (62,4 g), 0352 katalog raqamli (70,4 g), 0406 katalog raqamli (42,4 g), 0441 katalog raqamli (61,1 g), 0490 katalog raqamli (58,2 g), 02283 katalog raqamli (63,9 g) namunalar ko'rsatkichi eng yuqori bo'ldi.

*G.arboreum* L. turiga mansub andoza S-7094 navining mahsuldorligi 48,3 g va *G.hirsutum* L. turiga mansub S-01 navining bir o'simlik mahsuldorligi 102,6 g.ga teng bo'ldi.

### 1-jadval

#### Madaniylashgan diploid (*G.herbaceum* L., *G.arboreum* L.) kolleksiya namunalarining mahsuldorlik ko'rsatkichlari (2016-2017 yy.)

№	Katalog raqami	Kelib chiqishi	Bir o'simlik-dagi yetuk ko'saklar soni, dona	V%	Bitta ko'sakdagi paxtaning vazni, g	V%	Bir o'simlik mahsuldorligi, g/o'sim.
<b><i>G. arboreum</i> L.</b>							
1	0173	Hindiston	22,3±0,11	3.28	2,4±0.09	10.8	53,5
2	0182	Hindiston	24,1±0,15	3.21	2,1±0.01	10.5	50,6
3	0183	Hindiston	18,1±0,17	3.56	2,7±0.2	5.6	48,9
4	01517	Hindiston	22,1±0,19	5.55	2,3±0.09	5.9	51,0
5	02304	Hindiston	18,7±0,12	5.11	2,5±0.4	3.2	46,8
6	02320	Turkiya	20,7±0,10	3.45	2,6±0.2	5.4	53,9
7	02547	Hindiston	23,0±0,13	3.51	2,7±0.5	5.5	62,1
8	02637	Hindiston	20,9±0,10	3.58	2,4±0.5	5.5	50,1
9	02685	Hindiston	14,9±0,19	2.96	2,9±0.8	9.3	42,9
10	02697	Hindiston	14,6±0,18	2.63	3,0±0.3	3.9	44,0
11	05548	Xitoy	18,7±0,11	2.36	2,8±0.4	3.8	52,4
12	05770	Hindiston	22,4±0,13	2.97	2,3±0.9	5.8	51,6
13	06069	Xitoy	17,1±0,18	2.66	2,8±0.5	3.9	47,9
14	06170	Xitoy	17,1±0,16	2.45	2,6±0.1	9.3	49,2
15	07357	Pokiston	23,4±0,14	2.79	2,2±0.5	7.1	51,9
16	08184	AQSH	21,7±0,16	3.66	2,4±0.9	7.7	52,2
17	01783	Turkmaniston	24,2±0,11	3.59	2,2±0.08	3.6	53,2
18	05524	Germaniya	23,7±0,10	2.60	2,2±0.1	5.4	52,1
19	05771	Hindiston	19,5±0,13	3.72	2,5±0.07	3.7	48,7
20	06284	Hindiston	24,3±0,12	3.87	2,4±0.1	6.3	58,3
21	08757	Hindiston	22,5±0,14	3.41	2,1±0.07	3.8	47,2
22	012088	Hindiston	23,5±0,11	3.21	2,4±0.1	5.9	56,4
23	012096	Hindiston	22,1±0,08	2.62	2,1±0.1	5.7	46,4
24	012138	Xitoy	20,4±0,09	2.44	2,4±0.1	5.0	48,9
25	012142	Xitoy	21,5±0,08	2.61	2,4±0.1	5.2	51,6
26	012150	Xitoy	22,1±0,07	2.18	2,0±0.08	2.9	44,2

№	Katalog raqami	Kelib chiqishi	Bir o'simlik-dagi yetuk ko'saklar soni, dona	V%	Bitta ko'sakdagi paxtaning vazni, g	V%	Bir o'simlik mahsuldorligi, g/o'sim.
27	012159	Xitoy	20.6±0.10	3.05	2.2±0.09	3.4	45.3
28	012160	Xitoy	22.7±0.05	1.57	2.0±0.1	5.4	45.4
29	012163	Xitoy	18.4±0.12	3.45	2.5±0.1	6.0	42.3
30	012171	Xitoy	19.6±0.10	2.69	2.3±0.1	7.3	45.0
31	012173	Xitoy	19.0±0.10	3.12	2.1±0.2	8.2	39.9
32	012177	Xitoy	20.8±0.08	2.82	2.4±0.1	6.7	50.0
33	012183	Xitoy	21.1±0.09	2.70	2.4±0.1	8.8	50.6
34	012200	Xitoy	23.1±0.06	2.22	2.3±0.1	4.5	53.1
35	012202	Xitoy	20.5±0.10	2.80	2.4±0.1	4.7	49.2
<b><i>G. herbaceum</i> L.</b>							
1	081	O'zbekiston	22.0±0.21	5.98	3.1±0.1	4.7	68,2
2	0287	Eron	18.5±0.23	7.0	2.0±0.09	4.6	37,0
3	0294	Hindiston	18.0±0.19	4.88	2.8±0.06	2.4	50,4
4	0295	O'zbekiston	27,7±0.29	5.59	2,3±0.09	6.0	52,9
5	0316	Afg'oniston	16.1±0.20	5.77	2.3±0.09	3.9	32,2
6	0319	Afg'oniston	27,7±0.33	6.56	2,1±0.07	4.0	58,1
7	0349	Afg'oniston	21,5±0.88	6.15	2,9±0.09	3.9	62,4
8	0352	Afg'oniston	22.7±0.22	6.80	3.1±0.1	3.8	70,4
9	0406	O'zbekiston	32,6±0.66	6.33	1,3±0.07	3.1	42,4
10	0441	O'zbekiston	19.1±0.13	9.05	3.2±0.08	3.9	61,1
11	0490	Xitoy	27,7±0.51	7.23	2,1±0.6	2.5	58,2
12	0546	O'zbekiston	18.8±0.15	10,8	3.0±0.03	4.1	56,4
13	0556	O'zbekiston	49,9±0.99	6.39	1,0±0.01	5.1	49,9
14	0569	O'zbekiston	28,9±0.83	7.66	1,8±0.03	6.2	52,0
15	0595	Kipr	18,6±0.39	8.21	2,9±0.9	8.2	54,0
16	0622	Turkiya	17,5±0.19	6.0	2,8±0.1	7.2	49,0
17	01666	Hindiston	19.5±0.15	10.22	2.3±0.1	5.7	44,8
18	01670	Hindiston	16.8±0.20	13.12	2.8±0.1	7.2	47,0
19	01780	Turkmaniston	19,9±0.22	6.15	2,4±0.09	6.3	47,9
20	01781	Turkmaniston	20,8±0.37	2.15	2,8±0.1	2.8	58,4
21	01788	Turkmaniston	15,8±0.38	5.15	3,3±0.02	4.4	52,2
22	02072	Hindiston	15.3±0.18	12,86	2.7±0.1	4.6	41,3
23	02282	Pokiston	23,5±0.15	9.23	2,1±0.09	5.2	49,3
24	02283	Pokiston	33,6±0.18	2.99	1,9±0.03	2.3	63,9
25	02327	Turkmaniston	18,8±0.17	3.49	2,6±0.01	3.6	49,0
26	02076	Iroq	23,2±0.99	3.56	2,3±0.02	4.2	53,4
27	03329	Iroq	19,6±0.33	8.12	2,8±0.06	5.2	54,9
28	03341	Iroq	18,7±0.37	3.65	2,7±0.04	3.9	50,4
29	03492	Daniya	21,6±0.56	7.52	2,3±0.09	2.9	49,7
30	03496	Vena	18,9±0.27	5.12	2,9±0.01	7.1	54,9
31	03505	Ispaniya	22,3±0.96	7.1	2,2±0.09	6.1	49,1
32	09189	V'etnam	21.0±0.18	11.22	2.1±0.03	4.4	44,1
33	09095	Hindiston	16.0±0.15	14.05	2.1±0.1	5.0	33,6

№	Katalog raqami	Kelib chiqishi	Bir o'simlik-dagi yetuk ko'saklar soni, dona	V%	Bitta ko'sakdagi paxtaning vazni, g	V%	Bir o'simlik mahsuldorligi, g/o'sim.
	S-7094 st	O'zbekiston	21,0±0.11	4.5	2.3±0.2	6.2	48,3
	S-01 st	O'zbekiston	18,0±0.2	3,8	5.7±0.1	5.3	102,6
<i>EKF<sub>os</sub></i> =			<b>2,12</b>		<b>1,05</b>		<b>3,34</b>
<i>Sx</i> = %			<b>4,24</b>		<b>2,13</b>		<b>4,69</b>

